

## O'SMIRLIK XULQIDAGI O'ZGARISHLARNING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Qunduzoy Tursunboyeva**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,  
Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20552917>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, shaxs shakllanishi va ijtimoiy moslashuv jarayonlari tahlil qilingan. O'smirlik davrida yuz beradigan xulq-atvor o'zgarishlari, emotsional holatlar hamda oila, maktab va tengdoshlar muhitining o'smir shaxsiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaning o'smirlardagi salbiy hamda ijobiy xulq-atvor shakllanishidagi o'rni ilmiy manbalar asosida ochib berilgan.

*Tadqiqot natijalari* o'smirlarning sog'lom rivojlanishida ota-onalar, pedagoglar va ijtimoiy muhitning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik davri, shaxs shakllanishi, xulq-atvor, ijtimoiy moslashuv, oila, tarbiya, tengdoshlar muhiti, psixologik rivojlanish, negativizm, ijtimoiy muhit.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЙ В ПОВЕДЕНИИ ПОДРОСТКОВ

*Аннотация.* В статье анализируются психологические особенности подросткового возраста, процессы формирования личности и социальной адаптации. В нем рассматриваются изменения в поведении, эмоциональные состояния, возникающие в подростковом возрасте, а также влияние семьи, школы и сверстников на личность подростка. На основе научных источников также раскрывается роль социальной среды и семейного воспитания в формировании негативного и позитивного поведения подростков.

*Результаты исследования* показывают важность родителей, педагогов и социальной среды для здорового развития подростков.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, формирование личности, поведение, социальная адаптация, семья, воспитание, среда сверстников, психологическое развитие, негативизм, социальная среда.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR

*Abstract.* This article analyzes the psychological characteristics of adolescence, personality formation, and social adaptation processes. The book covers behavioral changes that occur during adolescence, emotional states, and the influence of family, school, and peer environments on the adolescent personality. The role of the social environment and family upbringing in the formation of negative and positive behavior in adolescents is also revealed based on scientific sources. The results of the study show the importance of parents, educators, and the social environment in the healthy development of adolescents.

**Keywords:** adolescence, personality formation, behavior, social adaptation, family, upbringing, peer environment, psychological development, negativism, social environment.

## KIRISH

O'smirlik davrining umumiy xususiyatlari. O'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim psixologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy

munosabatlari, emotsional holati va o'zini anglash jarayonlari keskin o'zgaradi. Psixologlar ta'kidlaganidek, o'smirlik davri "inqiroz davri" sifatida ham qaraladi, chunki bu bosqichda shaxsning ichki dunyosi va tashqi muhit o'rtasida muvozanat izlanadi.

Ko'pchilik o'smirlar boshqalardan yomonroq bo'lishni xohlamaydilar va o'z muhitida ko'zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar.

O'smirlarning hammasi g'ayratli va faoldirlar, biroq, o'zlarining kuchquvvatlarini qayoqqa yo'naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Binobarin, ularni bevosita natijalari bilan xursand qiladigan xilma-xil foydali va qiziqarli ishlar bilan band qilish kerak.

O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi va uning ijtimoiy moslashuvi bevosita u yashayotgan mikromuhit - oila, ta'lim muassasasi va tengdoshlar davrasi bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu faslda oilaviy munosabatlar, ota-ona nazorati uslublari va ishonchsiz bog'liqlikning o'smirlardagi agressiv hamda suitsidal xulq-atvoriga ta'siri nazariy va empirik manbalar asosida tahlil qilinadi.

O'zbekiston psixologiya maktabi vakillari o'smirlik davridagi og'ishgan xulq-atvorni o'rganishda oila va ijtimoiy shart-sharoitlarning birlamchi ekanligini alohida ta'kidlaydilar.

1. Ijtimoiy muhit va tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklar tahlili. A. Raxmonov o'smirlar xulqidagi salbiy o'zgarishlarning tub ildizlarini tahlil qilib, shunday yozadi: "O'smir o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi".

Ushbu fikr o'smir shaxsi shakllanishida kattalarning psixologik savodxonligi naqadar muhimligini ko'rsatadi.

S.X. Asilova esa o'smirlardagi negativizm va salbiy munosabatlarning manbayini quyidagicha izohlaydi: "Kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlarini bevosita jinsiy yetilish tufayli emas, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir".[1, 310]

Shu sababli, ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish orqali o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkinligi isbotlangan.

2. Oila - tarbiya o'chog'i va xavf manbai sifatida. Oila o'smir uchun ijtimoiy moslashuvning asosi hisoblanadi. Biroq, oiladagi noto'g'ri munosabatlar o'smirni destruktiv yo'llarga boshlaydi. S.X. Asilova bu borada ota-onalarni ogohlantiradi: "Ko'pincha oilaviy tarbiyada bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarining inobatga olinmasligi ularning noto'g'ri, yomon yo'llarga kirib ketishlariga sabab bo'ladi".[2, 82]

Agar oilada o'smirning individual-psixologik xususiyatlari inobatga olinmasa, u o'z ehtiyojlarini qondirish uchun "ko'cha" guruhlariga intiladi, bu esa darbadarlik va xulq-atvorning asotsial shakllariga olib keladi. U. Ibaydullayeva ta'kidlaganidek, o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini olishda oilaning o'rni beqiyosdir.[3, 41]

O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar.

Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit - bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir.

Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. [4, 72]

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biridir. Bu davrda o'smirning xulq-atvori, dunyoqarashi, his-tuyg'ulari va ijtimoiy munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'smirlarning shaxs sifatida shakllanishida oila, maktab va tengdoshlar muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlardagi salbiy xulq-atvor ko'pincha biologik omillardan ko'ra ijtimoiy muhit va tarbiya bilan bog'liq bo'ladi. Oiladagi noto'g'ri munosabatlar, e'tibor va ishonchning yetishmasligi o'smirning xulqida turli muammolar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Aksincha, ota-onalar va pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi, ishonchi hamda to'g'ri tarbiyasi o'smirning ijobiy rivojlanishiga yordam beradi.

Shu sababli, o'smirlarni tarbiyalashda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ular bilan samimiy muloqot qilish hamda sog'lom ijtimoiy muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'smirlarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zunnunov A. "Yosh davrlari psixologiyasi". – Toshkent: Fan, 2019. 310 b
2. Shodmonov Q. "O'smirlik davrida tarbiya muammolari". –
3. Samarqand: Zarafshon, 2018.-82 b.
4. Shipova, L.V. "Psixologiya agressii podrostkov: Uchebno-metodicheskoe posobie". Saratov State University. -2019.30–31,
5. 41–42-betlar.
6. Karimov B. "O'smirlik psixologiyasi". – Toshkent: O'zbekiston,
7. 2015.-72 b